

**AYRIM XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA
VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH
YOKI O'TKAZISH UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI**

Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining 3-bosqich doktoranti

E-mail: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish jinoyati bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi, mavjud qonunchiligidagi bo'shliqlar hamda xalqaro tajriba asosida ushbu bo'shliqlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: valyuta qimmatliklari, jinoyat, predmet, kriminalizatsiya, jinoyat tarkibi, xalqaro tajriba.

**ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕЗАКОННОЕ
ПРИБРЕТЕНИЕ ИЛИ ПЕРЕДАЧУ ИНОСТРАННЫХ ЦЕННОСТЕЙ
ПО УГОЛОВНОМУ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ НЕКОТОРЫХ
ИНОСТРАННЫХ ГОСУДАРСТВ**

Хайдаров Джалолиддин Хамза угли

Докторант 3-го курса Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Аннотация: в диссертации рассматривается опыт развитых стран по борьбе с преступлениями, связанными с незаконным приобретением или переводом валютных ценностей, пробелы в их действующем законодательстве, а также эти пробелы с учетом международного опыта.

Ключевые слова: валютные ценности, преступление, субъект, криминализация, состав преступления, международный опыт.

**ISSUES OF LIABILITY FOR ILLEGAL ACQUISITION OR
TRANSFER OF CURRENCY VALUABLES IN THE CRIMINAL
LEGISLATION OF SOME FOREIGN STATES**

Haydarov Jaloliddin Hamza ugli

3rd year doctoral student of Tashkent State University of Law

E-mail: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Abstract: *this thesis discusses the experience of developed countries on the crime of illegal acquisition or transfer of currency valuables, gaps in their existing legislation, and these gaps based on international experience.*

Keywords: *currency valuables, crime, subject, criminalization, structure of the crime, international experience.*

KIRISH

Qonunchilik sohasi mamlakatning barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy sohalari jihatidan birdek rivojlanib qonun talablariga va zamon talablariga mos bo'lishi hamda xizmat qilishi uchun doimiy ravishda xalqning hamda jamiyatning ma'nan va aqlan rivojlanishiga mos ravishda yangiliklarni hamda o'zgarishlarni qabul qila olgan holda xalqning talab va ehtiyojlariga javob bera olishi lozim bo'ladi. Ayniqsa, jinoyat qonunchiligi zamon o'zgargani sayin, elektron olam jamiyatlarni barcha jihatdan qamrab olayotgan bir sharoitda o'zida mavjud qonunchilik normalarini tegishli tarzda muvofiqlashtirgan holda kamchilik hamda o'zgarishlarini o'z vaqtida yuz berish mumkin bo'lgan tajovuzlarni oldini olgan holda qabul qilishi hamda rivojlanmog'i birdek ham xalq manfaatlari ham davlat manfaatlari xizmat qilishi shubhasizdir.

NATIJA

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida (*keying o'rinlarda RF JK*) nazarda tutilgan valyutaviy jinoyatlarga to'xtalib o'tsak, RF JK 186-moddasida soxta pul birliklari yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash, saqlash, olib o'tish yoki

o'tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, ijtimoiy xavfli qilmish obyektiv tomondan soxta bank biletlari, tangalar, davlat qimmatli qog'ozlari yoki Rossiya Federatsiyasi pul birligidagi qimmatli qog'ozlarni o'tkazish maqsadida tayyorlash, o'tkazish, tayyorlash, saqlashda namoyon bo'ladi [1].

Demak, yuqoridagi norma orqali RF jinoyat qonunchiligi valyuta qimmatliklarini olish yoki o'tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi milliy qonunchilimizdagi normaga deyarli yaqin norma hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 177-moddasida esa, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish sifatida faqatgina monetalarni keltiradi, ya'ni muayyan qiymatga ega Markaziy Bank tomonidan ishlab chiqilgan tangalarni nazarda tutmaydi.

RF JK 191-moddasiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 7.5-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan shaxs tomonidan bir yil ichida yarim qimmatbaho yoki qimmatbaho tosh, qimmatbaho metal, qahrabo, nefrit yoki marvarid bilan bog'liq bitimlar tuzish, ularni o'tkazish, saqlash, bundan xo'jalik buyumlari yoki ularning hosilalaridan tayyorlangan buyumlar mustasno [1]. Keltirilgan normdan ko'rinadiki, Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligi nafaqat qimmatbaho metal yoki qimmatbaho toshlarning noqonuniy aylanmasi, balki yarim qimmatbaho toshlarning noqonuniy aylanmasini ham jinoyat qonunchiligiga kirtiish orqali, ushbu harakatni ijtimoiy xavfliligini yuqoriligini baholab beradi. Shuningdek, qimmatbaho metall va toshlarni saqlashni ham qonun chiqaruvchi ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholaydi. Shaxs qimmatbaho metal yoki toshlarni noqonuniy tarzda saqlagan taqdirda ham ushbu harakati uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qo'shimcha qilish mumkinki, RF JK 192-moddasida qimmatbaho metallar yoki qimmatbaho toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzishni nazarda tutadi. Katta hajmda ikkilamchi homashyodan olingan qimmatbaho metallar yoki toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish jinoiy huquqbuzarlik sifatida keltiriladi.

MUHOKAMA

Valyutaviy xatti-harakatlarning konstitutsiya va qonun hujjatlariga, milliy qonunchilikda amalda bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlarga va axloq-odob qoidalariga zidligi fakti ushbu qilmishni kriminalizatsiyalash asosini ko'rsatib beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 151-moddasida ham O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshirishi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi Qonunida ham ushbu normalar aks etgan.

Qilmishni jinoiy javobgarlikka tortish-bu ma'lum bir harakat yoki xatti-harakatlar jinoiy javobgarlikka tortiladigan, ya'ni jinoyat maqomiga ega bo'ladigan jarayon. Qilmishni jinoiy javobgarlikka tortish qonun chiqaruvchi organning (masalan, parlament yoki Kongress) qaroriga asoslanadi, u ushbu harakatni jinoyatlar toifasiga kiritadigan qonun yoki jinoyat kodeksini qabul qiladi. Bu yerda qilmishni jinoiy javobgarlikka tortish asoslari keltirilgan:

1. Qonunchilikka kiritilganligi: qilmishni jinoiy javobgarlikka tortish qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan Qonunchilik qaroridan boshlanadi. Bu yangi qonun yoki mavjud jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritish bo'lishi mumkin.

2. Jinoyatning ta'rifi: qonunchilikda jinoyat deb tan olinishi kerak bo'lgan harakatning mohiyati va mohiyatini tavsiflovchi jinoyatning ta'rifi mavjud. Bu jinoyatni tashkil etuvchi elementlarni va amaldagi jinoiy jazolarni ko'rsatadi.

3. Jinoiy javobgarlik: qilmishni jinoiy javobgarlikka tortish, uni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilashni nazarda tutadi. Bu shuni anglatadiki, bunday qilmishni sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi va mumkin bo'lgan jazoga tortiladi.

4. Jinoiy javobgarlikka tortish jarayoni: ushbu harakat jinoiy javobgarlikka tortilganda, huquqni muhofaza qilish organlari ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish va javobgarlikka tortish vakolatiga ega. Jinoiy javobgarlikka tortish jarayoni hibsga olish, ayblash, sud jarayoni va jinoiy jazo tayinlashni o'z ichiga olishi mumkin [2].

Qilmishni kriminallashtirish ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga, jamiyatni himoya qilish, adolatni ta'minlash va tartibni saqlash maqsadlariga asoslanadi. Bu jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va himoya qilishga qaratilgan.

Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligiga asos bo'lgan SSSR Jinoyat qonunchiligida valyutaviy jinoyatlar qachon va qanday sharoitda kriminalizatsiya qilingan degan savollar berilishi tabiiy holat. SSSRda valyuta jinoyatlarini kriminallashtirish bir necha bosqichda sodir bo'lgan

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida valyutaviy jinoyatlar uchun turli xil javobgarlik choralari belgilangan hamda jinoyat qonunchiligi mamlakat iqtisodiy siyosatini ta'minlash,

valyuta barqarorligini saqlab qolish uchun valyutaviy jinoyatlarga qarshi samarali kurashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Уголовный кодекс Российской Федерации" от 13.06.1996 N 63-ФЗ
(ред. от 04.08.2023):

https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/c156b9a7c7fcdd4664a8f5a65da25f459c444845/.

2. Kofele-Kale, N. (2016). The international law of responsibility for economic crimes: holding state officials individually liable for acts of fraudulent enrichment. Routledge.